

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**
O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

OMONQULOV ULUG'BEK MAXSIDDIN O'G'LI

**BIOLOGIYA DARSLARIDA IQTIDORLI O'QUVCHILARNING
TADQIQOTCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi aftoreferati mundarijasি

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Omonqulov Ulug'bek Maxsiddin o'g'li

Biologiya darslarida iqtidorli o'quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	3
--	---

Омонкулов Улугбек Максиддин угли

Совершенствование методики развития исследовательских способностей одарённых учащихся на уроках биологии.....	25
---	----

Omonkulov Ulugbek Makhsiddin ogli

Improving the methodology for developing research skills of gifted students in biology lessons	49
--	----

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....	54
------------------------------	----

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**
O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

OMONQULOV ULUG'BEK MAXSIDDIN O'G'LI

**BIOLOGIYA DARSLARIDA IQTIDORLI O'QUVCHILARNING
TADQIQOTCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7873 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raxmatov Uchqun Ergashevich

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ametov Yakub Idrisovich

biologiya fanlari doktori, professor

Bakirov To‘lqinjon Yunusaliyevich

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:


Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil «29» sentyabr kuni soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Universitet majlislar zali. Tel.: (+99861) 223-60-47, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu.info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№366-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1 uy, Tel.: (+99861) 223-59-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «15» sentyabr kuni tarqatildi.

(2025 yil «15» sentyabrdagi 7-raqamli reestr bayonnomasi)



M.A.Jumanov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

M.K.Begjanov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d., dotsent

Ya.I.Ametov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati. Dunyoda ta’lim iqtisodiy taraqqiyotning bosh omili sifatida e’tirof etilib, asosiy e’tibor millatning eng muhim qadriyati hisoblangan yangicha fikrlovchi, yangi bilimlarni izlash va ularni egallashga bo‘lgan motivatsiyasi kuchli rivojlangan, nostonart vaziyatlarda kreativ qaror qabul qila oluvchi inson kapitali - iqtidorli o‘quvchilarga qaratilmoqda. Jahon ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan global ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar intellektual salohiyatli, iqtidorli, kreativ fikrli mutaxassislarga ehtiyojni namoyon etmoqda. Shunga ko‘ra, iqtidorli o‘quvchilar intellektual salohiyati va kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishi bilan mamlakat iqtisodiyotini, ilm-fanining xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshlilagini ta’minlaydigan asosiy omil sifatida qarash, ularni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy va amaliy hamda innovatsion faoliyat olib borishlariga imkon yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari ta’lim tizimida iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularni har tomonlama qo‘llab - quvvatlash, amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish va yangiliklar yaratishga yo‘naltirish, ularda mustaqil bilim olish, ma’lumot saralash, to‘plash, qayta ishlash, amaliy tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar olib borish, ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga mo‘ljallangan o‘quv dasturlarini yaratish kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish kabi bir qator ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, ta’lim tizimida ilm-fan va innovatsiyalar uchun keng imkoniyatlar yaratish, xorijiy investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni keng jalb etish, xalqaro tadqiqotlar olib borishga alohida e’tibor berilmoqda. Biologiya o‘qituvchilarida iqtidorli o‘quvchilar bilan individual va ommaviy ishlash tayanch va fanga oid kompetensiyalarini tarkib toptirish, kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, biologiya ta’limi jarayonida xalqaro baholash dasturlari asosida iqtidorlilikni erta aniqlash, kasbiy sohalarga yo‘naltirish, biologiya o‘qituvchilarining iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda innovatsion metodlarini ishlab chiqish, topshiriqlarni tabaqa lashtirish va individuallashtirish orqali iqtidorlilikni namoyon etish, o‘z-o‘zini baholash va korreksiyalash motivatsiyasini tarkib toptirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb muammolardan sanaladi.

Respublikamiz ta’lim jarayonida rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi ilg‘or tajribalarini integratsiyalash, xalqaro baholash dasturlarini amaliyotga joriy etish, o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini tarkib toptirish zamirida o‘quvchilarning iqtidorini aniqlash va rivojlantirish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini Yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida¹, jumladan, «...kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish», «...yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish» kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni qo‘llab – quvvatlash, biologiya fanini o‘qitishda iqtidorli

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

o‘quvchilar bilan ishslash metodikasini takomillashtirish asnosida konsepsiya yaratish, o‘qituvchining pedagogik va o‘quvchilarning faoliyatini faollashtirishga qaratilgan metodik ta’minotni takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hukumat miqiyosida hal qilinadigan, O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi sifatida ta’kidlangan zamonaviy ta’limni rivojlantirishdagi muhim vazifalardan biri bo‘lib², mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro‘yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda³. Ayniqsa, tabiiy fanlarga ixtisoslashgan umumiyo‘rta ta’lim maktablari uchun o‘qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, shu jumladan, iqtidorli o‘quvchilar bilan ishslash metodikasini rivojlantirish yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”⁴gi PF-5712-son, 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”⁵gi PF-5538-son, 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzlusiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁶gi PQ-4805-son, 2021-yil 19-iyuldagagi “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁷gi PQ-5188-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz va xorijiy davlatlarning olimlari tomonidan iqtidorli o‘quvchilar hamda ularning tadqiqotchilik metodlarini shakllantirish sohasida bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Respublikamiz ta’lim tizimida iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, iqtidorli o‘quvchilar bilan ishslash, biologik ta’lim jarayoniga AKT va innovatsion

² “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zRPQ-4433-son. 30.08.2019 y. // <https://lex.uz/docs/4494504>

³ “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzlusiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zRPQ-4306-son. 03.05.2019 y. // <https://lex.uz/docs/4320713>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

⁵ 2018-yil 5-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni.

⁶ 2020- yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzlusiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-son Qarori.

⁷ 2021-yil 19-iyuldagagi “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5188-son Qarori.

texnologiyalarni tadbiq etish muammolari hamda biologiya o‘qitish metodikasini takomillashtirish yuzasidan N.N.Azizzodjayeva, B.R.Qodirov, A.T.G‘ofurov, J.O.Tolipova, S.S.Fayzullayev, I.T.Azimov, K.Saparov, G.Shaxmurova, U.E.Raxmatov, A.K.Raximov, G.S.Ergasheva, va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

MDH davlatlarida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari va pedagogik-psixologik asoslari V.A.Gusev, D.B.Bogoyavlenskaya, I.I.Ilyasov, D.Raven, N.V.Kuzmina, M.A.Kuychiyeva, G.K.Selevko, N.G.Koshelenko va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Xorijlik olimlardan D.Poya, J.Gilford, K.Keen, J.Winterton, V.Bishop, S.Anderson, A.Reading, Dj.Bruner, J.Miller, R.Toth va boshqalar tomonidan olib borilgan bo‘lsada, lekin iqtidorli o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasingning P3-2014-0910185149 “Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari” (2023-2025 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi biologiya darslarida iqtidorli o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtidorli o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga oid psixologik, pedagogik, didaktik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish;

umumta’lim mакtablarida biologiya darslarida iqtidorli o‘quvchilar uchun tadqiqot metodlari va texnologiyalarini takomillashtirish;

xorijiy tajribalar asosida biologiya darslarida iqtidorli o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan funksional modelni ishlab chiqish;

o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda biologiyadan o‘quv topshiriqlar to‘plamini shakllantirish va metodik ta’minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida umumiy o‘rta ta’lim mакtablarining biologiya darslarida iqtidorli o‘quvchilarni tanlab olish va ularning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni belginib, pedagogik tajriba-sinovga Toshkent shahri Olmazor tumani 15 – umumiy o‘rta ta’lim mакtabi, Navoiy viloyati Navoiy shahar 23 – umumiy o‘rta ta’lim mакtabi, Farg‘ona viloyati Rishton tumani 8 – umumiy o‘rta ta’lim mакtablari olindi.

Tadqiqotning predmeti. Biologiya darslarida o‘quvchilarinining tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni, vositalari, usul va shakllaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid psixologik, pedagogik, falsafiy, ilmiy-metodik adabiyotlar va elektron zahiralar qiyosiy tahlil qilinib, so‘rovnoma, test, kuzatish, suhbat, tajriba-sinov natijalari, matematik-statistik,

metodlardan foydalanildi. Ushbu ilmiy ishda mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganish, taklif etilgan model va metodik tavsiyalarni asoslash hamda ularni amaliyotda sinovdan o‘tkazish maqsadida kompleks ilmiy-tadqiqot usullari majmuasidan foydalanildi. Jumladan: nazariy tahlil usuli orqali mavzuga oid mahalliy va xorijiy pedagogik, psixologik, falsafiy hamda ilmiy-metodik adabiyotlar, ilg‘or tajribalar va elektron resurslar qiyosiy tahlil qilinib, tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqildi; empirik usullar (so‘rovnoma, test, kuzatish, suhbat, diagnostika) orqali o‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalari, biologik tafakkuri va izlanishga bo‘lgan qiziqishi aniqlanib baholandi, eksperimental-tajriba ishlari orqali taklif etilgan model va metodik vositalarning samaradorligi amaliyotda sinovdan o‘tkazildi va tahlil qilindi, matematik-statistik tahlil usullari yordamida to‘plangan ma’lumotlar ishonchliligi va pedagogik samaradorligi aniqlanib, ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

iqtidorli o‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishga doir ilgari mavjud bo‘lgan pedagogik, psixologik, metodik va didaktik qarashlar qiyosiy tahlil qilinib, ular tizimli tartibda umumlashtirildi, biologiya fanini o‘qitish jarayonida tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik imkoniyatlar aniqlanib, ushbu yo‘nalish bo‘yicha kompleks yondashuv ishlab chiqildi, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda biologik bilimlarni egallashda ilmiy-tadqiqot uslublaridan samarali foydalanish mexanizmlari, biologiya fanining o‘ziga xos tabiiy-ilmiy mazmuni va eksperimentallik xususiyatidan kelib chiqib, iqtidorli o‘quvchilarni ilmiy izlanishga yo‘naltiruvchi darsdan tashqari mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari, kichik ilmiy loyihalar va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etiladigan o‘quv faoliyati shakllari, tadqiqotchilik kompetensiyasini baholash va rivojlanish dinamikasi aniqlashtirilgan;

mazkur tadqiqot doirasida biologiya fanining nazariy va amaliy imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali iqtidorli o‘quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan zamonaviy, innovatsion yondashuvlar tizimi ishlab chiqildi, biologyaning eksperimental, diagnostik va ekologik yo‘nalishlariga oid mavzularda kichik hajmli tadqiqot ishlarini amalgalashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan bosqichma-bosqich metodik tavsiyalar, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, analitik tafakkurini rivojlantirish, empirik kuzatish asosida ilmiy xulosalar chiqarish, gipoteza ilgari surish va uni tekshirish kabi tadqiqotchilik faoliyatining assosiy komponentlari aniqlashtirildi, iqtidorli o‘quvchilar bilan individual va guruhiy ishlash, ularni fan olimpiadalari, ilmiy konferensiyalar, loyiha tanlovlariiga tayyorlash jarayonida qo‘llash takomillashtirilgan;

tadqiqot doirasida rivojlangan davlatlar ta’lim tizimlarida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalar, xususan biologiya fanida o‘quvchilarning tadqiqotchilik salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni kichik ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish, integrativ yondashuvlari asosida darslarni loyihalash va amaliyotga joriy etish mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Bu tajribalar asosida O‘zbekiston ta’lim tizimining xususiyatlari, mavjud infratuzilma va metodik baza

inobatga olingan holda biologiya darslarida iqtidorli o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan takomillashtirilgan pedagogik model ishlab chiqilgan;

tadqiqot jarayonida iqtidorli o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘quv topshiriqlari to‘plami ilmiy-nazariy asoslar nuqtaiy nazaridan qayta ko‘rib chiqildi va mazmunan takomillashtirildi, biologiya fanining o‘ziga xos xususiyatlari – tajriba, kuzatuv, diagnostika va modellashtirish kabi faoliyat turlari asosida tuzilgan o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarning analitik, tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularni real hayotiy muammolarni ilmiy asosda yechishga yo‘naltirish imkonini beruvchi vosita sifatida qayta ishlab chiqildi, o‘quv topshiriqlarining mazmuni, murakkablik darjasи, natijadorlik ko‘rsatkichlari va baholash mezonlarini o‘z ichiga olgan metodik ta’midot ishlab chiqilgan. Bu ta’midot o‘qituvchilarga o‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, ularning mustaqil izlanish faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, biologiya fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar bilan integratsiyalashtirish imkoniyatlari takomillashtirilgan. O‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘quv topshiriqlarining tizimlashtirilgan shakli hamda ularni o‘qitish jarayoniga samarali integratsiya qilish bo‘yicha didaktik va metodik ta’midot sifatida “Biologiyani o‘qitishda innovatsion texologiyalar”, “Biologiyadan masala va mashqlar testlar yechish (odam va uning salomatligi)” nomli o‘quv qo‘llanmalar asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

biologiya fanida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga oid ilmiy-metodik asoslar ishlab chiqildi. Iqtidorli o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilishga qaratilgan pedagogik, psixologik va didaktik yondashuvlar tizimlashtirildi;

iqtidorli o‘quvchilar uchun tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ularning analitik fikrlash, muammolarni mustaqil hal qilish va ilmiy izlanish olib borish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi;

xalqaro tajribalar asosida biologiya darslarida tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan innovatsion model ishlab chiqildi. Mazkur model tajriba-sinov jarayonlarida sinab ko‘rildi va o‘quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi faolligi oshishi aniqlandi;

biologiya darslarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan didaktik va metodik ta’midot takomillashtirildi. O‘quv jarayonida tadqiqotchilik usullaridan foydalanish bo‘yicha “Biologiyani o‘qitishda innovatsion texologiyalar”, “Biologiyadan masala va mashqlar yechish (odam va uning salomatligi)” nomli o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqildi va pedagoglar uchun tavsiyalar berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalar materiallari to‘plami, OAK ro‘yhatidagi maxsus журнallar hamda xorijiy ilmiy журнallarida chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o‘quv qo‘llanma, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyatga joriy etilganligi, olingan natijalarning matematik-statistika metodlarni qo‘llash asosida, tekshirib

ko‘rilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida iqtidorli o‘quvchilarni saralash ular bilan ishlashning metodik asoslari muammolari hal qilinganligi, ixtisoslashgan sinflarning iqtidorli o‘quvchilari bilan ishlashga metodik tayyorlash jarayoni modelingining tarkibi va mazmuni boshqa o‘qituvchilarni - tabiiy fanlardan iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashga tayyorlashda asos bo‘lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati psixologik-pedagogik, diagnostik, texnologik, uslubiy materiallari ixtisoslashtirilgan sinflarning iqtidorli o‘quvchilari bilan ishlashga metodik asos bo‘la olish uchun zarur bo‘lib, ulardan pedagogika oliv o‘quv yurtlari o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish faoliyatida ham foydalanish mumkin. “O‘qituvchi” qo‘sishma malakasini taklif qiluvchi universitetlar, biologiyani chuqur o‘rganishga ixtisoslashgan maktab o‘qituvchilari va qo‘sishma ta’lim muassasalari o‘qituvchilari foydalanishi mumkin bo‘lgan biologiya sohasida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda innovatsion texnologiyalar, diagnostika vositalaridan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Biologiya darslarida iqtidorli o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganish, taklif etilgan model va metodik tavsiyalarni asoslash hamda ularni amaliyatda sinovdan o‘tkazish maqsadida kompleks ilmiy-tadqiqot usullari majmuasidan foydalanildi. Jumladan: nazariy tahlil usuli orqali mavzuga oid mahalliy va xorijiy pedagogik, psixologik, falsafiy hamda ilmiy-metodik adabiyotlar, ilg‘or tajribalar va elektron resurslar qiyosiy tahlil qilinib, tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqishga oid takliflar “Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2024-yil 30-maydagi 10/4.1 son qaroriga asosan berilgan 2024/214U-294 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, pedagogik, psixologik, metodik va didaktik adabiyotlarda iqtidorli o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishni tahlil qilish imkoniyatlari kengaytirilgan;

iqtidorli o‘quvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilishga xizmat qiluvchi biologiya fanida mustaqil tadqiqot olib borish bo‘yicha nazariy tahlil usuli orqali mavzuga oid mahalliy va xorijiy pedagogik, psixologik, falsafiy hamda ilmiy-metodik adabiyotlar, ilg‘or tajribalar va elektron resurslar qiyosiy tahlil qilinib, tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqishga oid takliflar “Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 17-martdagi 11-05-1649/04-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, biologiya fanidan umumta’lim maktablariga iqtidorli o‘quvchilar uchun tadqiqot metodlari, shakllari va vositalarini takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

xorijiy tajribalar asosida biologiya darslarida iqtidorli o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion modelni ishlab chiqishga oid metodik tavsiyalarni asoslash hamda ularni amaliyotda sinovdan o‘tkazish maqsadida kompleks ilmiy-tadqiqot usullari majmuasidan foydalanildi. Jumladan: nazariy tahlil usuli orqali mavzuga oid mahalliy va xorijiy pedagogik, psixologik, falsafiy hamda ilmiy-metodik adabiyotlar, ilg‘or tajribalar va elektron resurslar qiyosiy tahlil qilinib, “Biologiyani o‘qitishda innovatsion texologiyalar”, “Biologiyadan masala va mashqlar yechish (odam va uning salomatligi)” nomli o‘quv qo‘llanmalar asosida takomillashtirishga oid takliflar “Biologiyadan masala va mashqlar yechish (odam va uning salomatligi)” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2024-yil 30-noyabrdagi 4/3.1-son qaroriga asosan berilgan 2024-581U-491 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda biologiyadan o‘quv topshiriqlarini shakllantirish va metodik tizimini takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xorijiy va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, 2 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati oolib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Biologiya darslarida iqtidorli o‘quvchilarni tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida biologiya darslarida iqtidorli o‘quvchilarni tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik aspektlari, biologiya darslarida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashning konseptual asoslari, iqtidorli o‘quvchilardagi tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy jihatidan tahlil qilingan.

Ta’lim jarayonida shaxsni kamol toptirish shart-sharoitlarini yaratish ta’lim muassasalarida ishlarni to‘g‘ri tashkil etilganligi bevosita psixologik xizmatni to‘g‘ri

tashkil etishga ham bog'liqdir. Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishning maqsadi, vazifalari, mustaqil faoliyat turlarini o'rganish, iqtidorlilikning o'ziga xos xususiyatlari va iqtidorlilik jihatlarini rivojlantirish yo'llari, bosqichlari aniqlashtirilgan. Intellektual ijodiy salohiyatni oshirish uchun tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

Iqtidorli bolalarni o'qitishning asoslari, usullari, va pedagogik jihatlari mohiyatini bayon etish uchun turli manbalarni o'rgandik. Iqtidorli o'quvchilarning xususiyatlari: tezkor fikrlash, tezkor natijalar, tez rivojlanish; g'ayrioddiy qiziqish, ko'plab savollar va javoblarga katta talab; keng bilim doirasini, yuqori xotirani o'zlashtirish; intellektual rivojlanishdagi taraqqiyotning maxsus ijodiy fikrlashi muammolarni mustaqil ravishda hal qila oladi, ko'pincha yangi narsa yaratadi, badiiy va amaliy ishlarda narsalarni yakunlaydi. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishslashda ustoz-shogird an'anasiga qat'iy rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday qobiliyatli o'quvchilarga ilmiy rahbar etib ijodiy va uslubiy ishslash tajribasiga ega bo'lgan o'quv-uslubiy va ilmiy faoliyati bo'yicha reytingi yuqori bo'lgan o'qituvchilar tanlanishi lozimligi tahlil qilingan.

Ta'lim faoliyati iqtidorli oquvchilar bilan ishslashda asosiy quyidagilarga e'tibor qaratiladi - bu o'qituvchilarning kasbiy malakasining yuqori darajasi bo'lib, u quyidagilarni nazarda tutadi: shaxsga yo'tnaltirilgan ta'lim; uzluksizlik va tizimlilik; zamonaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalana olish kabi jihatlarni inobatga olish zarur.

Qobiliyat - shaxsga ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish, bilimlarni tez va osonlik bilan o'zlashtirishga yordam beruvchi individual-psixologik xususiyatdir.

Psixologik tadqiqot va maxsus kuzatishlarning ko'rsatishicha, yuqori aqliy qobiliyatlarga ega bolalar, aksariyat hollarda, bunda yoshligidan singib ketgan qiziqish va mayllari bolaning kasb tanlashi va muvaffaqiyatlarga erishishida puxta zamin bo'lib xizmat qiladi. Bunday bolalarning ta'limni oson o'zlashtirishidagi yuqori imkoniyatlari inobatga olinganligi va ijodiy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilishi ularning mutaxasis bo'lib shakllanishiga imkon beradi.

Dissertatsiyaning **"Biologiya darslarida iqtidorli o'quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish metododikasi"** deb nomlangan ikkinchi bobida biologiya darslarida iqtidorli o'quvchilar bilan ishslashning interfaol texnologiyalari, biologiya darslarida iqtidorli o'quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish modeli, biologiyadan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish orqali iqtidorli o'quvchilarni tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy va metodik jihatidan asoslab berilgan.

Bugungi kun ta'limning zamonaviy talablari asosida o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishni taqozo etadi. Xususan, iqtidorli o'quvchilar bilan ishslashda an'anaviy o'qitish uslublarini zamonaviy interfaol metodlar bilan boyitish, ularning qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga imkon yaratadi. Iqtidorli o'quvchilar o'zining tezkor tafakkuri, tahliliy fikrlash qobiliyati va ilmiy-tadqiqot ishlariga bo'lgan qiziqishi bilan ajralib turadi. Shu sababli, ular bilan ishslashda dars jarayonini faqat nazariy bilim bilan cheklamasdan,

ularni amaliyotga yo‘naltirish, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va ijodkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash zarur. Ular uchun an‘anaviy dars shakllari zerikarli bo‘lib ko‘rinishi, shuningdek, qiyinchilik darajasining pastligi ularda motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchidan o‘ziga xos yondashuv talab qilinadi. Bu jarayonda interfaol metodlar ta’lim sifatini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Biologiya darslarida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash uchun eng samarali interfaol texnologiyalar tahlil qilindi va ular sarasiga “Klaster”, “Idrok xaritasi”, “Rolli o‘yinlar”, “STEM loyihalari”, “Har kim – har kimga o‘rgatadi” va ularning mazmuni aniqlashtirildi hamda biologiya darslarida iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash jarayonida samarali foydalanilgan.

“Har kim – har kimga o‘rgatadi” metodi. Ushbu metod sinfdagi iqtidorli o‘quvchilarning *asistent-oqituvchiga* aylanishidir, bu metodning maqsadi o‘quvchilarga o‘qitish jarayonida zarur bo‘lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda o‘z tengqurlaridan o‘quvchida axborot olish yoki ularga berishga qiziqish uyg‘otishdir. Shuningdek axborot hajmini olgan o‘quvchi ma’lum vaqt davomida uni iloji boricha ko‘proq o‘rtoqlariga yetkazadi.

Dars jarayonida o‘qituvchi “Har kim – har kimga o‘rgatadi” metodidan foydalanishi o‘quvchilarda quyidagilarni rivojlantiradi:

o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqish va bilimlarini oshirish shu asnoda iqtidorini shakillantirish va uni rivojlantiradi, axborotni diqqat bilan tinglab, oson eslab qola oladi va boshqalarga ulasha oladi, o‘z fikrini tushunarli bayon eta oladi, sinf xonasidagi barcha o‘quvchilarning birgalikdagi fanga yoki mavzuga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishda.

Keling buni misol tariqasida ko‘rib chiqamiz. O‘quvchilar dastlab kichik guruhlarga bo‘linadilar. Hamma guruh a’zolariga dastlab bir xil masala yozilgan tarqatma tarqatiladi va masalani yechish shartlari tushuntiriladi.

1-Tarqatma. Sorgo hujayralarida assimilatsiya va dissimilatsiya jarayoni natijasida 4464 molekula ATF hosil bo‘ldi. Shu paytda sitoplazmada issiqlik sifatida tarqalgan energiya miqdorini (kJ) aniqlang.

1-qadam: masalani tushunib, yechib o‘qituvchiga taqdim etgan o‘quvchilar o‘qituvining “*assistant-iqtidorli o‘quvchilar*” lariga ya’ni “*kichik o‘qituvchi*” larga aylanadilar.

Masalaning yechimi:

1) Sorgo o‘simligining hujayralarida assimilatsiya – fotosintez (xloroplastlarda) jarayonida hosil bo‘lgan ATF miqdori mitoxondriyada dissimilatsiya jarayoni natijasida hosil bo‘lgan ATF miqdoridan 30 marta ko‘p. Shu ma’lumotlardan foydalanib mitoxondriyalarda qancha ATF energiya hosil bo‘lganini topib olamiz.

2) 1 (mitoxondriyada) – 30 (xloroplastda) = 31 (Jami)

3) 31 – 4464 ta ATF

1 – x ta ATF / x = 144 ta ATF mitoxondriyada hosil bo‘lgan

4) Sitoplazmada 3 ta ATF issiqlik sifatida hujayradan chiqib ketganda, mitoxondriyalarda 36 ta ATF hosil bo‘ladi.

3 ta ATF – 36 ta ATF

x ta ATF – 144 ta ATF / x = 12 ta ATF issiqlik sifatida tarqaldi.

5) $12 \times 40 = 480$ kJ ATF sitoplazmada issiqlik sifatida tarqalgan.

Javob: 480 kJ ATF sitoplazmada issiqlik sifatida tarqalgan.

2-qadam: Masalani yechishga qiynalayotgan o‘quvchilarga o‘qituvchi va assistentlar tushuntirish ishlarini olib boradilar va birgalikda masalani yechadilar.

3-qadam: o‘quvchilarga ikkinchi tarqatma topshiriqlar tarqatiladi.

2 – Tarqatma. Nazariy jihatdan o‘simliklardagi energetik almashinuvda 7 molekula glukoza to‘liq va to‘liqsiz parchalanganda 122 molekula ATF hosil bo‘ldi. To‘liq parchalangan glukozani xloroplastda sintezlash uchun necha molekula ATF kerak bo‘ladi?

1-qadam: Ikkinchi masalani yechishda “assistantlar” soni yana ko‘payadi.

Masalaning yechimi:

1) To‘liqsiz parchalangan $C_6H_{12}O_6$ x mol, to‘liq parchalanganini esa y mol deb olsak

2) 1 molekula glukoza to‘liqsiz parchalansa – 2 molekula ATF

x molekula glukoza to‘liqsiz parchalansa – a molekula ATF / a = 2x molekula ATF

3) 1 molekula glukoza to‘liq parchalansa – 38 molekula ATF

y molekula glukoza to‘liq parchalansa – a molekula ATF / a = 38y molekula ATF

$$4) x + y = 7 / 2$$

$$2x + 38y = 122$$


$$\cancel{2x} + 2y = 14$$

$$\cancel{2x} + 38y = 122$$

$$-36y = -108$$

$$y = 3 \text{ molekula glukoza to‘liq parchalangan.}$$

5) Fotosintezning qorong‘ilik bosqichida 18 molekula ATF dan 1 molekula glukoza sintezlanadi va quyidagi reaksiya tenglamasi hosil bo‘ladi.



6) 18 molekula ATF – 1 molekula glukoza

x molekula ATF – 3 molekula glukoza / x = 54 mol ATF

Javob: To‘liq parchalangan glukozani xloroplastda sintezlash uchun 54 molekula ATF kerak bo‘ladi.

2-qadam: Assistantlar (*iqtidorli o‘quvchi*) va o‘qituvchi ikkinchi masalani yechishga qiynalayotgan o‘quvchilarga tushuntirish ishlarini olib boradilar.

3-qadam: o‘quvchilarga uchinchi tarqatma topshiriqlar tarqatiladi.

3-Tarqatma. Glukoza to‘liqsiz va to‘liq parchalanishidan 8800 kJ energiya va 118 ATF hosil bo‘ldi. Necha mol glukoza to‘liq parchalangan.

1-qadam: Uchinchi masalani yechishda “assistantlar” soni yana ko‘payadi.

Masalaning yechimi:

1) $2x + 38y = 118 / 100$

$$200x + 2800y = 8800$$

$$\cancel{200x} + 3800y = 11800$$

$$\cancel{200x} + 2800y = 8800$$

$$1000y = 3000 \quad y = 3 \text{ mol glukoza}$$

Javob: 3 molekula glukoza to‘liq parchalangan.

2-qadam: Assistentlar-iqtidorli o‘quvchilar va o‘qituvchi uchinchi masalani yechishga qiynalayotgan o‘quvchilar bilan yana tushuntirish ishlarini olib boradilar.


3-qadam: Bu harakat darsning oxirigacha davom ettirilishi mumkin.


Natijada barcha o‘quvchilar mavzuni to‘liq tushunib, o‘zlashtiradilar.

“Har kim – har kimga o‘rgatadi” metodida dars jarayonida barcha o‘quvchilarni qamrab oladi. Assistentlarning esa “Masala yechish yo‘llarini tengdoshiga tushuntirar ekan” egallagan bilimlar yanada mustahkamlanadi. Eng muhim masalalar yechish ancha murakkab bo‘lsada, do‘stona, o‘zaro yordam muhitida osonroq o‘zlashtirilishi o‘rganilgan.

“Klaster” usuli - iqtidorli o‘quvchilarning mavzuni chuqur tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, “Hujayra va uning tuzilishi” mavzusida o‘quvchilar hujayraning asosiy organoidlarini klaster shaklida tasvirlaydi va ular o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni tahlil qiladi. Bunday vizual yondashuv ayniqsa iqtidorli o‘quvchilar uchun foydali bo‘lib, ularga murakkab biologik tushunchalarni tizimli o‘rganish va mustaqil tahlil qilish imkoniyatini beradi

Hujayra





Klaster diagrammasi orqali hujayraning tuzilishini vizual tarzda ko‘rsatish o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, fanlararo bog‘liqlikni tushunish va ilmiy izlanishlarga qiziqishini oshirish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.


Shuningdek mazkur bobda iqtidorli o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini aniqlashtirish va rivojlantirish imkonini beradigan model ishlab chiqdik. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan model natijasida quyidagi vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilishni talab etadi:

tadqiqot ob‘yektni hamda tadqiqot maqsadini tanlash; modelni har bir komponentining o‘zaro integratsiyasini ta’minlash, model elementlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik munosabatlarini aniqlash; modelning samarasini bashoratlash;

o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarlik darajasini aniqlash.

Umumiy o‘rtta ta’lim mакtablarida biologiya fanini o‘qitishda biologiya darslarida iqtidorli o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish asosida shakillanadi deb hisoblaymiz. Mazkur jarayonni amalga oshirishda biz muhim komponentlar, mazmun, maqsad, jarayonli, diagnostika va baholovchi natijaviy komponentlaridan iborat modelni ishlab chiqdik. Ishlab chiqilgan metodik modelning rivojlantiruvchi maqsadi asosida o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash hamda tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksiz jarayoniga aylantirishni ko‘rib chiqamiz. Biz tomonimizdan tavsiya etilayotgan model dinamikdir, ya’ni o‘quvchini tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash, tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qodir 5 blokdan: maqsadli, mazmunli, jarayonli va samarali baholash, natijadan iborat.

Model quyidagi maqsadlarni o‘zida mujassamlashtiradi: o‘quvchilarda ilmiy tafakkurini shakllantirish; ilmiy-tadqiqot faoliyatga tayyorlashni rivojlantirish; keljakdagi ilmiy-tadqiqot kasbiy faoliyatga tayyorgarlik (1-rasm).



1-rasm. Biologiya ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilarning tadqiqotchilik qobilyatlarini rivojlantirish modeli

Modelimizning mazmunli bloki o'quvchilarning tadqiqotchilik qobilyatini rivojlantirish vazifalari, yondashuv, tamoyillar hamda pedagogik shart-sharoitlar


bilan bog'liq barcha zarur ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot vazifalariga biologiya fanini o'qitishni mazmuni, tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash modeli, biologiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish belgilandi.

Metodik modelning jarayonli bloki tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirishga doir metodlar, vosita va shakllar majmuini o'z ichiga qamrab oladi.

Natijaviy-baholash komponenti pedagogika oliv ta'lim amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish natijasida o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash darajalari va mezonlari natijasi ekanligini tadbiq qilganmiz. Bu yerda biz ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlik mezonlarini aniqlash hamda har bir fan orqali tadqiqotchilik qobilaytini shakllantirishning uch darajasini aniqladik: yuqori, o'rta va past.

Baholash bloki pedagogik tajriba-sinov bosqichlari, baholash mezonlari hamda tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarlik darajalari: yuqori (produktiv-tadqiqotiy), o'rta (qisman-izlanishli), past (reproduktiv-ijodiy) darajadan iborat. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalari shakllanganligini aniqlash uchun axborot bilan ishslash hamda ilmiy kontekstni tushunish, izohlash, ilmiy matnni shakllantirish kabi mezonlar tanlandi.

